
SIZ DOIMO E'TIBORIMIZDASIZ, AZIZ USTOZLAR!



- Ustozlar duolarini olish boshqacha. Men muallim farzandi bo'lganimdan faxrlanaman va ushbu kasbga bo'lgan ishtiyoq meni ham muallim bo'lishga chorladi, - deya bizga yozmoqda o'z xabarida Qal'acha mahalla fuqarolar yig'ini yoshlar yetakchisi Parviz Azizov.

Ustozlar va murabbiylarning kasb bayrami munosabati bilan Qal'acha mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan 20-sonli umumta'lim maktabida tantanali tadbir bo'lib o'ttdi. Tadbirdan so'ng maktab ma'muriyati mahalla fuqarolar yig'ini mutasaddilari bilan birgalikda mahallada yashovchi, ta'lim sohasida kyp yillar davomida fidokorona va beminnat xizmat qilib, bugungi kunda shukronalik bilan keksalik gashtini syrayotgan bir guruh nuroniy ustozlarning hollaridan xabar oldilar.

Aytish lozimki, mazkur mahallada ham sohada namuna bo'lgan, fidoiy ustozlarga yashashadi. Barcha ustozlarga maktab va mahalla ma'muriyatining esdalik va qimmatbaho sovg'alari taqdim etildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-10-02 11:14:09